

“Kelishildi”
Berdaq nomidagi
Qoraqalpoq davlat universiteti
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektori
 **O. Duysenbaev**

« 05 » avgust 2024-yil.

“Tasdiqlayman”
Berdaq nomidagi
Qoraqalpoq davlat universiteti
rektori **A. Reymov**

« 05 » avgust 2024-yil.

Texnikumlarni muvaffaqiyatli yakunlagan bitiruvchilarni Qoraqalpoq davlat universitetining bakalavr ta’lim yo‘nalishlariga o‘qishga qabul qilishda yakka tartibdagi suhbat jarayonida bitiruvchilarning bilimini

BAHOLASH MEZONI

Suhbat jarayonida bitiruvchilarga berilgan savollar suhbat shaklida o‘tkazilib, ularning bilim va ko‘nikmalari har bir savol kesimida quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- Bitiruvchi o‘z sohasi bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va mazmunini to‘la biladi, ta’lim yo‘nalishining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunadi va sohaga qattiq qiziqadi, mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, sohasi bo‘yicha yutuqlarga ega, bilimni amalda qo‘llay oladi, tanlangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha teran bilim va ko‘nikmalarga ega deb topilganda – **21-25 ball**;
- Bitiruvchi o‘z sohasi bo‘yicha mulohaza yurita oladi, ta’lim yo‘nalishining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunadi, olgan bilimni amalda qo‘llay oladi, sohaning mohiyatini tushunadi, tanlangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – **16-20 ball**;
- Bitiruvchi tanlangan soha bo‘yicha tushunchaga ega, o‘z sohasiga qiziqadi, ta’lim sohasidagi umumiy bilim va kasbiy ko‘nikmalarga qisman ega, o‘z sohasi bo‘yicha umumiy tasavvurga ega deb topilganda - **11-15 ball**;
- Bitiruvchi o‘z sohasi bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va mazmunini to‘la o‘zlashtirmagan, sohaning mohiyatini va istiqbolini yaxshi tushunmaydi, tanlangan ta’lim yo‘nalishiga unchalik qiziqmaydi, o‘z sohasi bo‘yicha keng tasavvurga ega emas deb topilganda – **6-10 ball**;
- Bitiruvchi o‘z sohasi bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va mazmunini ozgina o‘zlashtirgan, sohaning mazmun mohiyatini tushunmaydi, tanlangan ta’lim yo‘nalishiga qiziqmaydi, o‘z sohasi bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – **0-5 ball** bilan baholanadi.

Jami to‘plashi mumkin bo‘lgan eng yuqori ball 100 ballni tashkil etadi. Suhbat komissiyasi tomonidan o‘tkazilgan suhbatning yakuniy natijalariga ko‘ra to‘rtta savoldan to‘plagan ballarining o‘rtachasi **67 ball va undan yuqori** bo‘lgan abituriyentlar suhbatdan o‘tgan hisoblanadi.

Qabul komissiyasi mas’ul kotibi:



S. Sulaymanov